

**“TASDIQLAYMAN”**

**Xalqaro Nordik universiteti**

**rektori Sh.I. Mustafakulov**



2026-yil

**MAGISTRATURA TA'LIM SHAKLIGA O'QISHGA QABUL QILISH TARTIBI  
TO'G'RISIDA  
NIZOM**

*Xalqaro Nordik universiteti Kengashining  
2026-yil 30-yanvar 1-sonli qarori bilan tavsiya etilgan*

**Toshkent-2026**

## I BOB. UMUMIY QOIDALAR

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Shuningdek, PF-4456-son “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 190-son qarorlariga muvofiq, Xalqaro Nordik universitetining (keyingi o‘rinlarda **Universitet** deb yuritiladi) Magistraturaga talabalarni qabul qilish nizomi (keyingi o‘rinlarda **Nizom** deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

1.1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga (keyingi o‘rinlarda **magistratura** deb ataladi) talabalarni qabul qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Magistraturaga qabul tegishli ta’lim yo‘nalishi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilangan turdosh (magistraturaga qabul bo‘yicha) oliy ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxati bo‘yicha bakalavr darajasiga yoki diplomli mutaxassis malakasiga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tanlov asosida amalga oshiriladi.

Tanlov har bir oliy ta’lim muassasasi bo‘yicha magistratura mutaxassisligi, o‘qitish tili va shakliga ko‘ra alohida o‘tkaziladi. Ayrim magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha hududlar kesimida, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari kesimida maqsadli qabul kvotalari tasdiqlangan taqdirda, tanlov har bir hudud, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari (oliy ta’lim muassasasi) bo‘yicha alohida o‘tkaziladi.

1.3. Magistraturada o‘qitish tili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan qabul ko‘rsatkichlari doirasida hujjatlar qabul qilinishiga qadar vazirliklar va idoralar tomonidan belgilanadi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

1.4. Abituriyentlar magistraturaga kirish sinovlarini Universitetda o‘qitiladigan tilda topshiradi.

1.5. Magistraturaga o‘qishga qabul qilish jarayonlari oliy ta’lim tashkiloti qabul komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — qabul komissiyasi) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bunda magistraturaga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha qabul komissiyasi mas’ul kotibining o‘rinbosari tayinlanadi.

Qabul komissiyasi quyidagi tarkibda shakllantiriladi:

- akademik ishlar bo'yicha prorektor (komissiya raisi);
- magistratura fakulteti dekani;
- tegishli kafedra mudirlari;
- Akademik ishlar departamenti vakili;
- moliya bo'limi vakili;
- Talabalar kengashi vakili (kuzatuvchi sifatida).

Komissiya tarkibi har yili qabul mavsumi boshlanishidan kamida 30 kun oldin rektor buyrug'i bilan tasdiqlanadi va Universitetning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

1.6. Abituriyent tamomlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos yoki turdosh magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishga qabul qilinadi. Abituriyent tamomlagan muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi negizidagi magistratura mutaxassisligi mos mutaxassislik hisoblanadi.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) har yili 1-iyulga qadar oliy ta'lim tashkilotlari magistraturasiga qabul qilish bo'yicha turdosh oliy ta'lim yo'nalishlarining ro'yxatini tasdiqlaydi hamda Vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali e'lon qiladi.

#### **1.8. Maqsad va vazifalar**

1.8.1. Ushbu Nizomning maqsadi universitet magistratura mutaxassisliklariga abituriyentlarni qabul qilish tartibini, qabul mezonlari va talablari, baholash tartibi, shikoyatlarni ko'rib chiqish, qabul natijalarini e'lon qilish hamda qabul jarayonining shaffofligi va qonuniyligini ta'minlash mexanizmlarini belgilashdan iborat.

1.8.2. Ushbu Nizomning vazifalari quyidagilardan iborat:

- magistraturaga qabul jarayonini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va universitetning ichki normativ hujjatlariga muvofiq tashkil etish;
- qabul mezonlari va talablarini barcha abituriyentlar hamda manfaatdor tomonlarga ochiq va tushunarli shaklda yetkazish;
- abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar, shaffoflik va xolislik tamoyillari asosida qabul jarayonini amalga oshirish;
- bilim va ko'nikmalarni baholashning aniq, oldindan e'lon qilingan va hujjatlashtirilgan mezonlarini joriy etish;
- qabul natijalari, apellyatsiya va murojaatlar bo'yicha hisobdorlik hamda monitoring mexanizmlarini ta'minlash.

1.9. Universitet magistratura mutaxassisliklariga qabul qilish jarayonini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tashkil etadi. Qabul jarayonining qonunchilikka muvofiqligi quyidagi mexanizmlar orqali ta'minlanadi:

- qabul jarayoniga oid ichki hujjatlarning qabul mavsumi boshlanishidan oldin huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi;

— qabul komissiyasi faoliyatining ichki nazorat va monitoring asosida tekshirilishi;

— qabul jarayoniga oid qarorlarning qabul komissiyasi, universitet Kengashi bayonnomalari, rektor buyruqlari hamda boshqa tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi;

— qonunchilikka zid holatlar aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha xizmat tekshiruv, dalolatnoma va tegishli boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi.

— huquqiy ekspertiza va ichki nazorat natijalari yozma xulosa, dalolatnoma yoki xizmat yozuvi bilan rasmiylashtiriladi hamda belgilangan tartibda saqlanadi.

1.10. Magistratura mutaxassisliklariga qabul qilish jarayoni universitetning ichki normativ hujjatlari, jumladan akademik siyosat, talabalar mobilligi to'g'risidagi tartib, kredit-modul tizimi reglamenti, kreditlarni tan olish va avvalgi ta'lim natijalarini e'tirof etish tartibiga muvofiq tashkil etiladi.

Mazkur ichki hujjat qabul jarayonida quyidagi masalalarni tartibga solishda qo'llaniladi:

— abituriyentning avvalgi ta'lim natijalarini ko'rib chiqish;

— akademik mobillik doirasida o'zlashtirilgan fanlar va kreditlarni tan olish;

— o'quv natijalarining mosligini aniqlash;

— qabul komissiyasi yoki tegishli vakolatli komissiya tomonidan qaror qabul qilish tartibi;

— qabul jarayonida ichki tartib hujjatlariga zid holatlarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlari.

## **II BOB. ABITURIYENTLARNI RO'YXATDAN O'TKAZISH**

2.1. Magistraturaga tanlovlar boshlanishidan bir oy oldin qabul komissiyasi magistraturaga qabul qilish muddatlari, mutaxassisliklar nomlari va ajratilgan o'rinlar haqidagi axborotni Universitetning rasmiy veb-sayti yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qiladi.

2.2. Abituriyentlar magistraturaga o'qishga kirish uchun Universitetning rasmiy veb-sayti (<https://nordicuniversity.org>) yoki tegishli elektron platformalar orqali ro'yxatdan o'tadi.

Abituriyentlar har yili 1-iyundan 30-sentabrgacha (30-sentabr kuni ham) ro'yxatdan o'tkaziladi.

Ro'yxatdan o'tish uchun quyidagi hujjatlar elektron platformaga yuklanadi:

a) pasport yoki shaxsiy guvohnoma nusxasi;

b) oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat nusxasi (yoki diplomdan ko'chirma nusxa – oliy ta'lim tashkilotlarini davlat granti bo'yicha o'qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova nusxasi.

Bunda 2020/2021 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tashkiloti tomonidan berilgan diplom ma'lumotlari (o'rtacha balli bilan) Vazirlikning "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish – HEMIS" axborot tizimida avtomatik ravishda shakllantirilishi sababli ushbu toifadagi diplom va uning ilovasini elektron platformaga yuklash talab etilmaydi;

c) xorijiy tilni bilish bo'yicha amaldagi qonunchilik va vakolatli organlarning talablari bilan belgilangan darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikat nusxasi. Xorijiy til sertifikati bo'yicha talablar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq qo'llaniladi. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq mazkur talabdan ozod etilgan abituriyentlar bundan mustasno.

Bunda xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikatlar quyidagi darajalarda talab etiladi:

— xorijiy tillar yo'nalishlari bo'yicha – kamida S1 darajasida;

— gumanitar, biologik va turdosh fanlar, matematika va statistika, biznes va boshqaruv, huquq, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar, jurnalistika va axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim sohalari bo'yicha – kamida B2 darajasida;

— boshqa ta'lim sohalari hamda madaniyat va sport mutaxassisliklari bo'yicha – kamida B1 darajasida.

d) 3x4 o'lchamdagi 6 dona rangli fotosurat;

2.3. Magistraturaga qabul bo'yicha ro'yxatdan o'tgan abituriyentlarning hujjatlari har yili 10-avgustgacha qabul komissiyalari tomonidan ko'rib chiqiladi va ularning arizalari qabul qilingani elektron platformadagi shaxsiy kabinetlari orqali ma'lum qilinadi.

Arizasi qabul qilinmagan abituriyentlarga arizani qabul qilishni rad etish sababi ko'rsatilgan holda elektron platformadagi shaxsiy kabinetlari orqali ma'lum qilinadi.

2.4. Elektron platforma orqali ro'yxatdan o'tgan abituriyentlar arizasi holatini o'zlarining shaxsiy kabineti orqali kuzatib boradi.

2.5. Abituriyent tomonidan belgilangan muddatda ro'yxatdan o'tishda elektron platformaga talab etilgan ma'lumotlar va hujjatlar asliga mos hamda to'liq belgilangan talablarga muvofiq kiritilganda, qabul komissiyasi tomonidan hujjatlarni qabul qilish rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

2.6. Universitet magistratura mutaxassisliklariga qabul qilish mezonlari, talablar, tanlov parametrlari, baholash mezonlari, hujjat topshirish muddatlari, qabul natijalarini e'lon qilish tartibi, apellyatsiya tartibi hamda aloqa kanallarini abituriyentlar va manfaatdor tomonlarga ochiq, tushunarli va o'z vaqtida yetkazishni ta'minlaydi.

Mazkur ma'lumotlar kamida quyidagi axborot manbalari orqali e'lon qilinadi:

- universitetning rasmiy veb-sayti;
- universitetning rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari;
- abituriyentlar uchun maxsus axborot sahifalari;

- elektron qabul platformasi;
- ochiq eshiklar kuni tadbirlari;
- elektron yo'riqnoma, savol-javob bo'limi va maslahat kanallari.

Qabulga oid e'lonlarda kamida quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi shart:

- magistratura mutaxassisliklari ro'yxati;
- qabul kvotalari va ta'lim shakllari;
- qabul talablari va topshiriladigan hujjatlar ro'yxati;
- baholash mezonlari va kirish sinovlari shakli;
- qabul natijalarini e'lon qilish muddati;
- apellyatsiyaga berish tartibi, muddatlari va aloqa manzillari.

Mazkur ma'lumotlarning dolzarbligi va to'g'riligi uchun qabul komissiyasi mas'ul hisoblanadi. E'lon qilingan ma'lumotlar yangilanganda, o'zgartirishlar zudlik bilan rasmiy axborot manbalarida joylashtiriladi.

2.7. Akademik mobillik dasturlari doirasida boshqa oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olgan shaxslarning o'qish natijalari universitetning kredit-modul tizimi talablari hamda kreditlarni tan olish bo'yicha ichki tartib asosida majburiy ravishda ko'rib chiqiladi.

Kreditlarni tan olish masalasi quyidagilar asosida tegishli vakolatli komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi:

- ta'lim dasturlari o'rtasidagi moslik;
- o'quv fanlarining mazmuni;
- o'quv yuklamasi va kredit hajmi;
- ta'lim natijalarining mosligi;
- taqdim etilgan rasmiy tasdiqlovchi hujjatlar.

Komissiya qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va abituriyentga yozma yoki elektron shaklda yetkaziladi.

2.8. Avvalgi ta'lim natijalarini e'tirof etish hamda kreditlarni tan olish universitetning kredit-modul tizimi to'g'risidagi ichki reglamenti asosida amalga oshiriladi. Bunda quyidagi mezonlar hisobga olinadi:

- ta'lim dasturlarining mosligi;
- o'quv yuklamasi hajmi;
- fanlarning mazmuni va o'quv natijalari;
- o'zlashtirish darajasi;
- taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyliги va rasmiyligi.

Kreditlarni tan olish yoki avvalgi ta'lim natijalarini e'tirof etish to'g'risidagi qaror tegishli komissiya tomonidan qabul qilinadi, bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va qabul jarayoni hujjatlariga ilova qilinadi.

2.9. Abituriyentlarning avvalgi ta'lim natijalari, shu jumladan boshqa oliy ta'lim tashkilotlarida yoki xalqaro ta'lim dasturlarida erishilgan akademik yutuqlari

universitetning tegishli vakolatli komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va belgilangan tartibda e'tirof etilishi yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Mazkur qaror quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- abituriyent tomonidan ariza va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi;
- hujjatlar komissiya tomonidan belgilangan muddatda ko'rib chiqiladi;
- qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi;
- qaror natijasi abituriyentga yozma yoki elektron shaklda yetkaziladi;
- rad etish holatida sabablar ko'rsatiladi va apellyatsiya berish huquqi tushuntiriladi.

### **III BOB. KIRISH IMTIHONLARINI O'TKAZISH**

3.1. Magistraturaga qabul universitet granti va to'lov-kontrakt asosida tanlov yo'li bilan amalga oshiriladi. Tanlov natijalari ushbu Nizomda belgilangan baholash mezonlari asosida shakllantirilgan yakuniy ballar ketma-ketligiga ko'ra qabul komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Magistraturaga qabul tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki Vazirlik tomonidan belgilangan turdosh ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavr darajasiga ega hamda amaldagi talablarga muvofiq xorijiy til sertifikatini taqdim etgan shaxslar o'rtasida amalga oshiriladi.

Tanlov har bir magistratura mutaxassisligi, o'qitish tili va ta'lim shakli bo'yicha alohida o'tkaziladi.

Magistraturaga qabul qilish uchun abituriyentning bakalavriat diplomi bo'yicha o'rtacha bali (GPA) kamida 2.4 (100 ballik shkalada kamida 60 ball) bo'lishi talab etiladi. Ushbu minimal ko'rsatkichdan past ko'rsatkichga ega abituriyentlar tanlovga qo'yilmaydi.

3.2. Magistraturaga qabul barcha abituriyentlar uchun teng huquqlilik, yagona qoidalar, oshkorlik va xolislik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Qabul natijalari yakuniy ballar ketma-ketligiga ko'ra aniqlanadi. Universitet granti nazarda tutilgan mutaxassisliklar bo'yicha eng yuqori yakuniy ball to'plagan abituriyentlar birinchi navbatda grant asosida tavsiya etiladi. Qolgan abituriyentlar belgilangan qabul parametrlari doirasida to'lov-kontrakt asosida tavsiya etiladi.

Agar eng oxirgi tavsiya etilgan abituriyent bilan bir xil yakuniy ballga ega boshqa abituriyentlar mavjud bo'lsa, ular bo'yicha qaror amaldagi qoidalar va qabul komissiyasi bayonnomasi asosida qabul qilinadi.

3.3. Magistraturaga qabul bo'yicha baholash tartibi universitet tomonidan tasdiqlangan va oldindan e'lon qilingan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

- Baholashda quyidagilar inobatga olinadi:
- magistratura mutaxassisligi bo'yicha kirish sinovi natijalari;

- bakalavriat bosqichidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari, agar ular qabul mezonlarida alohida komponent sifatida nazarda tutilgan bo'lsa;
- amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarga muvofiq qo'llaniladigan boshqa mezonlar.

Magistraturaga kirish sinovi umumiy ballari quyidagilardan tashkil topadi:

— magistraturaga kirishda tanlagan mutaxassislik bo'yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov o'tkaziladi (baholash mezonlari 0 ball dan 100 ballgacha tashkil etadi);

— universitet bitiruvchisining umumiy reytingi yoki o'zlashtirish ko'rsatkichi (o'zlashtirish tegishli ravishda 50 ball dan 100 ballgacha bo'lgan diapazonda yuzdan bir aniqlikda, o'zlashtirgan fanlarining o'rtacha bali orqali ifodalanadi) aniqlanadi.

Magistraturaga o'qishga kirishda eng ko'p (maksimal) to'planishi mumkin bo'lgan ball – 100 ni tashkil etadi.

Har bir komponentning ulushi, maksimal bali, minimal o'tish bali hamda yakuniy ballni hisoblash tartibi qabul e'loni bilan bir vaqtda universitetning rasmiy axborot manbalarida e'lon qilinadi. Baholash mezonlari qabul jarayoni davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3.4. Kirish imtihonlari universitet tomonidan oldindan tasdiqlangan tartib asosida test, yozma ish, suhbat yoki kompleks baholash shakllarida amalga oshiriladi.

Kompleks baholash shakli qo'llanilgan taqdirda:

- baholash mezonlari oldindan tasdiqlanadi;
- har bir baholovchi a'zoning vakolati va baholash sohasi belgilanadi;
- yakuniy natijalar baholash varaqalari va komissiya bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Kirish imtihonining qaysi shaklda o'tkazilishi har bir mutaxassislik bo'yicha qabul e'lonida oldindan ko'rsatiladi.

3.5. Kirish imtihonlari bo'yicha fan dasturlari, baholash mezonlari, imtihon shakli, jadvali, o'tkazish joyi, boshlanish vaqti hamda apellyatsiya tartibi universitetning rasmiy veb-saytida va elektron qabul platformasida kirish sinovlari boshlanishidan kamida 10 kun oldin e'lon qilinadi.

Abituriyentlarga tushuntirish berish maqsadida universitet qabul komissiyasi tomonidan maslahatlar, savol-javob sessiyalari va axborot materiallari taqdim etilishi mumkin. Mazkur tadbirlar qabul mezonlarini o'zgartirmaydi va barcha abituriyentlar uchun teng sharoitda tashkil etiladi.

3.6. Kirish sinovlarini o'tkazish uchun rektorning buyrug'i bilan har bir sinov fanlari bo'yicha komissiyalar tuziladi.

3.7. Sinov fanlari bo'yicha komissiya tarkibi oliy ta'lim muassasasining yetuk va tajribali professor-o'qituvchilari tarkibidan tashkil etiladi. Zarur hollarda uning tarkibiga boshqa oliy ta'lim muassasasining o'qituvchilari ham jalb qilinadi.

3.8. Sinov fanlari bo'yicha komissiya raislari zimmasiga quyidagi mas'uliyat yuklanadi:

— kirish sinovlari sifatli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida komissiya tarkibiga malakali, talabchan va adolatli professor-o'qituvchilarni jalb etish;

— komissiya a'zolarining vazifalarini belgilash (maslahatlar berishni tashkil etish, imtihon savollarini tuzish, javoblarni baholash mezonlarini ishlab chiqish va boshqalar);

— sinov jarayoniga rahbarlik qilish va nazorat qilish.

3.9. Fanlar bo'yicha sinovlarni o'tkazish tartibi (o'qituvchilarni auditoriyalarga taqsimlash, javoblarni shifrlash hamda tekshirish va hokazolar) Universitet qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

3.10. Kirish sinovlarining natijalari, baholash mezonlariga muvofiq ball bilan belgilanadi va qaydnomalarga kiritiladi. Qaydnomalar fan bo'yicha imtihon komissiyasining a'zolari, qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi va komissiya raisiga taqdim etiladi.

3.11. Universitetga o'qishga qabul qilingan abituriyentlarning imtihon natijalari ularning shaxsiy hujjatlar yig'ma jildlariga tikib qo'yiladi.

O'qishga qabul qilinmaganlarning imtihon natijalari 6 oy davomida saqlanadi, so'ng belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

3.12. Magistraturaga mutaxassislik bo'yicha maxsus fandan kirish sinovi uchun belgilangan maksimal ballning 50 foizidan kam ball to'plaganlar, shuningdek, belgilangan muddatlarda kirish sinovlariga kelmaganlar navbatdagi kirish sinoviga kiritilmaydi hamda magistraturaga qabul qilinmaydi.

3.13. Universitetda abituriyentlarning apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun mustaqil apellyatsiya komissiyasi tuziladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga:

- qabul natijasi yuzasidan dastlabki qaror qabul qilgan shaxslar;
- manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan xodimlar kiritilmaydi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi rektor buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Abituriyent qabul natijasi e'lon qilingan paytdan boshlab 2 ish kuni ichida apellyatsiya shikoyati bilan yozma yoki elektron shaklda murojaat qilishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyati 3 ish kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Abituriyent apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqishda bevosita yoki masofaviy shaklda ishtirok etish huquqiga ega. Apellyatsiya ko'rib chiqiladigan sana, vaqt va shakl haqida abituriyentga kamida 1 ish kuni oldin xabar beriladi.

Apellyatsiya natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- dastlabki qarorni o'z kuchida qoldirish;
- baholash natijasini qayta ko'rib chiqish;
- texnik yoki protsessual xatoni bartaraf etish;
- qabul komissiyasiga qo'shimcha ko'rib chiqish uchun yuborish.

Apellyatsiya komissiyasi qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va abituriyentga yozma yoki elektron shaklda yetkaziladi.

3.13.1. Agar abituriyent apellyatsiya komissiyasi qaroridan qoniqmasa, qaror unga yetkazilgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida Universitet rektori nomiga yozma murojaat qilish huquqiga ega. Rektor mustaqil ekspertlar ishtirokida murojaatni 5 ish kuni ichida ko'rib chiqadi va yakuniy qaror qabul qiladi. Rektorning qarori universitet doirasida yakuniy hisoblanadi. Bundan tashqari, abituriyent amaldagi qonunchilik doirasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

3.14. Manfaatlarga to'qnashuvi mavjud bo'lgan komissiya a'zosi tegishli masalani ko'rib chiqishda ishtirok etmaydi. Bunday holat aniqlanganda u komissiya ishidan chetlashtiriladi va bu haqda bayonnomada alohida qayd kiritiladi.

3.15. Magistraturaga qabul jarayonining shaffofligi va qonuniyligini ta'minlash maqsadida universitetda quyidagilar amalga oshiriladi:

- qabul jarayonining ichki monitoringi;
- qabul komissiyasi faoliyati ustidan nazorat;
- qabul hujjatlari va baholash natijalarining tanlov asosida tekshirilishi;
- natijalarni statistik va huquqiy tahlil qilish;
- aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tuzatish choralari rejasini ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilish.

3.16. Abituriyentlar qabul jarayoni bilan bog'liq masalalar yuzasidan elektron platforma, universitetning rasmiy murojaatlar tizimi, elektron pochta, maxsus aloqa kanallari yoki yozma ariza orqali murojaat qilish huquqiga ega.

Murojaatda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- abituriyentning F.I.Sh.;
- murojaat mazmuni;
- agar mavjud bo'lsa, dalillovchi hujjatlar yoki ilovalar;
- aloqa ma'lumotlari.

Murojaatlar belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi, ko'rib chiqiladi va natijalari abituriyentga yozma yoki elektron shaklda yetkaziladi. Zarur hollarda murojaatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tegishli komissiya bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

3.17. Magistraturaga qabul jarayonida amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida universitetda quyidagi nazorat mexanizmlari joriy etiladi:

- qabul komissiyasi faoliyatining ichki monitoringi;
- qabulga oid ichki hujjatlarning huquqiy ekspertizasi;
- hujjatlar va baholash jarayonining tanlov asosida tekshiruv;
- qabul natijalari va murojaatlar statistikasining tahlili;
- aniqlangan nomuvofiqliklar yuzasidan tuzatish va oldini olish choralari.

Huquqiy ekspertiza va nazorat tadbirlari natijalari rasmiy hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi hamda qabul jarayoni hujjatlari bilan birga saqlanadi.

3.18. Qabul jarayonida yuzaga kelgan shikoyatlar, aniqlangan kamchiliklar hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar universitetning tegishli reyestrlarida qayd etiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

Reyestrda kamida quyidagi ma’lumotlar aks ettiriladi:

- murojaat yoki holatning kelib tushgan sanasi;
- murojaatchining F.I.Sh.;
- murojaat mazmuni yoki aniqlangan kamchilik tavsifi;
- ko‘rib chiqish uchun mas’ul shaxs yoki komissiya;
- qabul qilingan qaror;
- ijro muddati;
- bajarilgan choralar to‘g‘risidagi belgi.

Mazkur reyestri yuritish uchun qabul komissiyasining mas’ul kotibi yoki rektor buyrug‘i bilan belgilangan boshqa mas’ul xodim javobgar hisoblanadi.

3.19. Magistraturaga qabul natijalari kirish sinovlari yakunlanganidan va qabul komissiyasining tegishli bayonnomasi tasdiqlanganidan so‘ng 1 ish kuni ichida universitetning rasmiy veb-sayti, elektron qabul platformasi hamda abituriyentlarning shaxsiy kabinetlari orqali e’lon qilinadi.

Abituriyentlar qabul natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni quyidagi manbalar orqali olish huquqiga ega:

- universitetning rasmiy veb-sayti;
- elektron qabul platformasi;
- shaxsiy kabinet;
- universitetning rasmiy axborot kanallari.

Natijalar e’lon qilinganda kamida quyidagilar ko‘rsatiladi:

– abituriyentning identifikatsion raqami yoki boshqa maxfiylikka zid bo‘lmagan identifikatori;

- to‘plagan bali;
- tavsiya etilgan yoki etilmaganligi;
- apellyatsiya berish muddati va tartibi.

3.20. Qabul natijalari e’lon qilinganligi elektron platformada qayd etiladi hamda abituriyentlarning shaxsiy kabinetlarida aks ettiriladi.

Mazkur ma’lumotlar quyidagi hujjatlarda rasmiy qayd etiladi:

- elektron reyestrda;
- qabul komissiyasi bayonnomalarida;
- imtihon natijalari qaydnomalarida;
- zarur hollarda individual natijalar varaqasida.

Har bir abituriyent o‘zining individual natijalari, baholash mezonlari va rad etish asoslari bilan tanishish huquqiga ega.

3.21. Qabul natijalari bo'yicha ma'lumotlarning ochiqligi va adolatliligini ta'minlash maqsadida universitetda quyidagi mexanizmlar joriy etiladi:

- qabul natijalarini belgilangan muddatlarda ommaviy e'lon qilish;
- individual natijalardan tanishish imkoniyatini yaratish;
- qabul jarayonining monitoringi;
- qabul natijalari bo'yicha statistik tahlil;
- apellyatsiya va murojaatlarni ko'rib chiqish tizimi.

Mazkur mexanizmlar shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish talablari buzilmagan holda amalga oshiriladi.

3.22. Qabul natijalari e'lon qilinish jarayoni qabul komissiyasi hamda universitet rahbariyati tomonidan monitoring qilinadi.

Monitoring davomida quyidagilar tekshiriladi:

- natijalar e'lon qilish muddatlariga rioya etilishi;
- e'lon qilingan axborotning to'liqligi va aniqligi;
- individual natijalardan foydalanish imkoniyati;
- murojaatlar va apellyatsiyalar statistikasi;
- aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tuzatish choralari ijrosi.

Monitoring natijalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotnoma tuziladi.

3.23. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan har bir shikoyat bo'yicha asoslantirilgan qaror qabul qilinadi. Qarorda murojaat mazmuni, ko'rib chiqilgan holatlar, dalillar, qabul qilingan yakuniy xulosa va zarur bo'lsa, bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ko'rsatiladi.

Qaror apellyatsiya komissiyasi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va abituriyentga yozma yoki elektron shaklda yetkaziladi.

3.24. Qabul jarayoni bo'yicha kelib tushgan shikoyatlar va apellyatsiyalar universitet tomonidan muntazam ravishda tahlil qilinadi. Tahlil natijalari asosida:

- qabul jarayonidagi tizimli kamchiliklar aniqlanadi;
- takrorlanayotgan xatolar va xavflar baholanadi;
- qabul tartibini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi;
- mas'ul bo'linmalar uchun ijro choralari belgilanadi.

Mazkur tahlil natijalari bo'yicha ichki hisobot tayyorlanadi.

3.25. Apellyatsiya va shikoyatlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarning ijrosi universitet rahbariyati tomonidan monitoring qilinadi.

Monitoring jarayonida:

- murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlariga rioya qilinishi;
- qarorlarning o'z vaqtida bajarilishi;
- qabul jarayonining shaffofligi;
- murojaatlar statistikasi va ularning takrorlanish sabablari tahlil qilinadi.

Monitoring yakunlari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli topshiriqlar beriladi va ularning ijrosi nazoratga olinadi.

#### **IV BOB. O'QISHGA QABUL QILISH TARTIBI**

4.1. Talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

— oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning asl nusxasi (yoki diplomdan ko'chirmaning asl nusxasi – oliy ta'lim tashkilotlarini davlat granti bo'yicha o'qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova;

— xorijiy tilni bilish bo'yicha amaldagi talablar bilan belgilangan darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikat nusxasi, qonunchilik hujjatlariga muvofiq mazkur talabdan ozod etilgan abituriyentlar bundan mustasno;

— qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda universitetda nazarda tutilgan imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlar imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjatning asli.

Abituriyent tomonidan taqdim etilgan (topshirilgan) hujjatlarning qalbakiligi aniqlansa, abituriyent talabalikka qabul qilinmaydi (talabalikka qabul qilingan bo'lsa, oliy ta'lim tashkiloti talabalari safidan chetlashtiriladi) hamda bu haqda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish organlari xabardor qilinadi.

4.2. Abituriyentlarni to'lov-kontrakt asosida magistratura mutaxassisliklariga tavsiya etish to'g'risida Universitet qarori qabul qilingandan so'ng Universitet bilan yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasida belgilangan tartibda shartnoma rasmiylashtiriladi. Belgilangan namunadagi shartnoma blankalari Universitet qabul komissiyasi tomonidan sinov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab taqdim qilinadi hamda yuridik shaxslar uchun rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolangan holda 3 nusxada, jismoniy shaxslar uchun 2 nusxada rasmiylashtiriladi.

4.3. Qabul komissiyasi tomonidan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilgan abituriyentlar uchun to'lov har yili shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Shartnoma shartlari va tomonlarning majburiyatlari, ularni amalga oshirish tartibi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

To'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan o'qish uchun belgilangan to'lov miqdori belgilangan tartibda to'langandan so'ng, oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

4.4. Tanlov natijalariga ko'ra, belgilangan qabul parametrlari doirasida magistraturaga talabalikka tavsiya etilmagan abituriyentlar arizalariga muvofiq oliy ta'lim tashkilotlarining mavjud quvvatlari, moddiy-texnik bazasi hamda professor-o'qituvchilari tarkibini inobatga olib, Universitet qarori bilan qo'shimcha qabul parametrlari asosida magistraturaga o'qishga qabul qilinishi bo'yicha ruxsat beriladi.

Magistratura mutaxassisliklariga qo‘shimcha qabul parametrlari asosida o‘qishga qabul qilingan abituriyentlarning to‘lov-kontrakt miqdori bir talabaga to‘g‘ri keladigan real xarajatlardan kelib chiqib, oliy ta‘lim tashkiloti tomonidan mustaqil belgilanadi.

4.5. Abituriyent tomonidan ushbu Nizomning 4.1-bandida qayd etilgan hujjatlar qabul komissiyasiga taqdim etilmasligi Universitetning uni o‘qishga qabul qilmasligiga asos bo‘ladi.

## **V BOB. XORIJIY FUQAROLARNI O‘QISHGA QABUL QILISH**

5.1. Xorijiy fuqarolar Universitet tomonidan o‘tkaziladigan suhbat natijasiga ko‘ra to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Xorijiy fuqarolar Universitet tomonidan bir o‘quv yilida, qoida tariqasida, ikki marotaba o‘qishga qabul qilish masalasi belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

5.2. Universitetning magistratura mutaxassisliklariga bakalavriat ta‘lim bosqichi ma‘lumotiga yoki unga tenglashtirilgan ma‘lumotga ega xorijiy fuqarolar qabul qilinadi.

5.3. Xorijiy fuqarolarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati tegishli magistratura mutaxassisligi uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda, Universitet tomonidan mustaqil belgilanadi, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

5.4. Universitetga o‘qishga qabul qilingan xorijiy fuqarolarni o‘qitish ta‘lim dasturlarida nazarda tutilgan tillarda olib boriladi.

5.5. O‘qishni muvaffaqiyatli tugatgan xorijiy fuqarolarga belgilangan namunadagi oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat (diplom) beriladi.

## **VI BOB. QABUL PARAMETRLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI**

6.1. Universitetda magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha qabul parametrlari, shu jumladan talabalar soni, mutaxassisliklar kesimidagi kvotalar va o‘qitish shakllari universitetning ta‘lim dasturlarini sifatli amalga oshirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

6.2. Qabul parametrlari universitetning mavjud infratuzilma quvvati, auditoriya fondi, o‘quv va ilmiy laboratoriyalar, amaliyot bazalari, texnik jihozlanish darajasi hamda ta‘lim, ilmiy-tadqiqot, ma‘naviy-ma‘rifiy va sog‘lomlashtirish faoliyatini tashkil etish imkoniyatlariga mos ravishda shakllantiriladi.

6.3. Qabul parametrlari belgilanishida universitetning moddiy-texnik bazasi, mavjud o‘quv maydonlari va infratuzilma sig‘imi bo‘yicha ma‘lumotlar, qiyoslama jadvallar, tegishli dalolatnomalar va hisobotlar asos sifatida olinadi.

6.4. Qabul parametrlari belgilanishida Axborot-resurs markazining, shu jumladan kutubxona fondi, o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta‘minlanganlik darajasi, o‘quv zallari

sig'imi, elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlari va talaba kontingenti ehtiyojlarini qondirish salohiyati inobatga olinadi.

6.5. Axborot-resurs markazining imkoniyatlari va resurslari bo'yicha ma'lumotlar qabul parametrlarini shakllantirishda tegishli asoslovchi hujjat sifatida ko'rib chiqiladi.

6.6. Magistratura bo'yicha qabul parametrlari professor-o'qituvchilar soni, ularning malakasi, ilmiy darajasi, mutaxassislik profili, fanlar kesimidagi o'quv yuklamasi hamda talabalarga sifatli ta'lim berish imkoniyatlari tahlili asosida belgilanadi.

6.7. Professor-o'qituvchilar tarkibi va o'quv yuklamasi bo'yicha tahlillar, tegishli taqsimot jadvallari hamda kadrlar salohiyatiga oid ma'lumotlar qabul parametrlarini belgilashning muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

6.8. Qabul parametrlari universitetning moliyaviy imkoniyatlari, shu jumladan budjet mablag'lari, grantlar, to'lov-kontrakt tushumlari, mavjud xarajatlar va rejalashtirilgan moliyaviy resurslar hisobga olingan holda shakllantiriladi.

6.9. Qabul parametrlari bo'yicha qarorlar qabul qilinishida moliyaviy barqarorlik, ta'lim dasturlarini zarur resurslar bilan ta'minlash imkoniyati hamda qabul qilingan talabalar kontingentiga nisbatan moliyaviy majburiyatlarni bajarish salohiyati inobatga olinadi.

6.10. Magistratura bo'yicha qabul parametrlari universitetning missiyasi, rivojlanish strategiyasi, ustuvor yo'nalishlari, akademik profili hamda uzoq muddatli institutsional maqsadlariga muvofiq ravishda belgilanadi.

6.11. Mutaxassisliklar va qabul kvotalarini shakllantirishda universitetning strategik rivojlanish rejasi, ta'lim yo'nalishlari portfeli, ilmiy salohiyati va akademik ixtisoslashuvi hisobga olinadi.

6.12. Qabul parametrlari tegishli soha va tarmoqlardagi mehnat bozori ehtiyojlari, ish beruvchilarning takliflari, hududiy va tarmoq rivojlanish tendensiyalari hamda bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoj tahlili asosida shakllantiriladi.

6.13. Mehnat bozori tahlili va ish beruvchilarning takliflari har bir kafedra, yo'nalish va mutaxassislik kesimida umumlashtiriladi hamda qabul parametrlarini belgilashda hisobga olinadi.

6.14. Qabul parametrlarini shakllantirishda foydalanilgan asoslovchi hujjatlar, jumladan yillik qabul rejasi, kvotalar bo'yicha asosnomalar, moddiy-texnik baza hisobotlari, Axborot-resurs markazi ma'lumotlari, professor-o'qituvchilar yuklamasi tahlili, moliyaviy ma'lumotlar, strategik reja hamda mehnat bozori tahlili belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va saqlanadi.

6.15. Qabul parametrlari hamda ularni belgilashda asos bo'lgan infratuzilma, kadrlar, moliyaviy, axborot-resurs va mehnat bozori ko'rsatkichlari muntazam ravishda monitoring qilinadi.

6.16. Monitoring natijalariga ko'ra qabul parametrlari, mavjud kvotalar va mutaxassisliklar kesimidagi ko'rsatkichlarga zarurat tug'ilganda belgilangan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

6.17. Qabul parametrlarini shakllantirish, ularni asoslash, ko'rib chiqish, tasdiqlash va monitoring qilish bilan bog'liq jarayonlar universitetning vakolatli boshqaruv organlari, qabul komissiyasi hamda tegishli tarkibiy bo'linmalar ishtirokida amalga oshiriladi.

6.18. Qabul parametrlarini belgilash jarayonida shaffoflik, asoslanganlik, resurslarga moslik, strategik uyg'unlik va manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini hisobga olish tamoyillari ta'minlanadi.

6.19. Qabul parametrlarini shakllantirish yuzasidan tayyorlangan tahliliy va asoslovchi materiallar har yili ko'rib chiqiladi hamda universitetning tegishli vakolatli organi qarori bilan tasdiqlanadi.

## **VII BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

7.1. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

7.2. Ushbu Nizom universitetda magistraturaga o'qishga qabul qilish jarayonini tartibga soladi.

7.3. Nizomda ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha qaror qabul qilish vakolati universitet Kengashiga yuklatiladi.

7.4. Qabul jarayonida universitetning ichki tartib hujjatlariga zid holatlar aniqlangan taqdirda:

- xizmat tekshiruvini o'tkaziladi;
- aniqlangan kamchiliklar dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi;
- aybdor shaxslarga nisbatan intizomiy choralar qo'llaniladi;
- zarur hollarda qabul jarayonlari qayta ko'rib chiqiladi.

7.5. Ushbu Nizomning ijrosini ta'minlash maqsadida universitet har bir qabul mavsumi yakunida ichki tahlil o'tkazadi.

Ichki tahlilda quyidagilar baholanadi:

- qabul mezonlari va talablarining ochiqqligi;
- qabul jarayonining qonunchilikka muvofiqligi;
- ichki tartib hujjatlarining amalda qo'llanishi;
- qabul natijalarini o'z vaqtida e'lon qilish darajasi;
- apellyatsiya va murojaatlar bilan ishlash samaradorligi.

Tahlil natijalari asosida zarur hollarda mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

7.6. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish universitet Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

7.7. Amaldagi qonunchilikka o'zgartirish kiritilgan taqdirda, mazkur Nizom tegishli o'zgartirishlar rasmiy kuchga kirgan kundan boshlab 30 kalendar kun ichida qayta ko'rib chiqiladi va zarur tuzatishlar Universitet Kengashi qarori bilan kiritiladi.